

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLER VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

STRUCTURAL CHANGES IN THE PROCESS OF TRAINING SPECIALISTS IN THE FIELD OF LIVESTOCK FARMING IN SURKHANDARYA REGION

Jumaeva Shohida Chorievna

Teacher of Termiz State University

E-mail: jumayevas@tersu.uz

Abstract. This article examines the structural changes in the process of training specialists in the field of livestock farming in the Surkhandarya region. It analyzes the existing curricula, practical training foundations, and the development directions of the personnel training system in accordance with modern requirements. Special attention is given to the modernization of livestock farming in the region, strengthening scientific and practical integration, and the application of international experience.

Keywords: livestock farming, Surkhandarya, specialist training, structural changes, human resources capacity, curriculum.

SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR

Jumayeva Shohida Choriyevna

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida chorvachilik sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi tarkibiy o'zgarishlar tahlil qilingan. Mavjud o'quv dasturlari, amaliy tajriba asoslari hamda zamonaviy talablar asosida kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanish yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada chorvachilikni modernizatsiya qilish, ilmiy-amaliy integratsiyani kuchaytirish va xalqaro tajribani qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik, Surxondaryo, mutaxassis tayyorlash, tarkibiy o'zgarish, kadrlar salohiyati, o'quv dasturi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N14>

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillarida agrar soha vakillariga, xususan chorvachilik sohasida mutaxassis kadrlarga bo'lgan munosabat borasida mustabid tuzum sharoitida shakllangan yondashuvdan voz kechish ancha qiyin kechdi. Mutaxassis kadrlarni o'z o'rniga qo'yish, mulkchilik shakllari o'zgara boshlagan bir sharoitda tarqatilgan kolxoz va sovxozlardagi ishchi-xodimlarni ish bilan ta'minlash o'z holiga tashlab qo'yildi. Natijada, chorvachilikka ixtisoslashgan jamoa xo'jaliklarining daromadi keskin kamayib, xo'jalik ishchilariga ish haqi berish ancha murakkablashdi, bu esa ularning moddiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda chorvachilikni taraqqiy ettirish uchun mazkur sohadagi oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari ko'lamini kengaytirish hamda ularda mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasini zamon talablari asosida yuritish zarur edi. Respublikamizning ko'pgina hududlarida kechgani kabi, Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligida unumdorlikning pasayib ketishiga

ko'p jihatdan kadrlar yetishmovchiligi va ularni yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi sabab bo'ldi. Mustaqillikning ilk yillarida Navro'z, Oqqapchig'ay, Sayxon, Bobotog', Hisor chorvachilik xo'jaliklari hamda Sayrob naslchilik zavodida zootexnik, veterinar va naslchilik bo'yicha mutaxassislarining etishmasligi edi. Kadrlar masalasida yuzaga kelgan talabidan kelib chiqqan holda o'rta-maxsus mutaxassislar tayyorlash maqsadida agrar kollejlari tashkil qilishga kirishildi. Termiz, Boysun va Qumqo'rg'on qishloq xo'jalik kollejlari chorvachilik sohasida o'rta bo'g'in mutaxassislar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yila boshladi.

1994-yilda Termizda tashkil etilgan agrar kollejida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish hamda sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida veterinar-vrachlar, mexanizatorlar, hisobchilar, iqtisodchilar, tayyorlash yo'lga qo'yildi. Termiz agrar kollejida barcha fanlardan dasturlar mavjud bo'lib, o'quv rejasi asosida tuzildi. 1-kurslar uchun Zooveterinariya fanidan 42 soat, 2-kurslar uchun Veterinariya fanidan 36 soat, Dehqon fermer fanidan 36 soat darslar ajratildi [3]. Kollejda o'quvchilar uchun 166,5 ming ta kitob fondi mavjud bo'lib, shulardan darsliklar 10100 donani tashkil etdi. Kollej kutubxonasining umumiy maydoni 448 m² tashkil qilib, har bir bo'lim uchun alohida javonlar va darsliklar ajratib qo'yilgan. Kutubxonada mutaxassislikka oid 2500 dona iqtisod, 4000 dona veterinariya va zooveterinariya, 1300 dona fermer va texnologiya darsliklari mavjud edi [2].

O'quvchilar mutaxassis fanlar bo'yicha 1994-1995 o'quv yilining birinchi yarmida Veterinariya mutaxassisligidan 91 foiz, Fermer mutaxassisligidan 89 foiz, Zooveterinariya mutaxassisligidan 90 foiz darslarni o'zlashtirgan [1]. Biroq bu qishloq xo'jalik kadrlarini ta'minlash uchun yetarli emas edi. Negaki, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida joylarda malakali kadrlar yetishmas edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 204-sonli qarori asosida «O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi nizom tasdiqlanib, unga asosan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish ishlari olib borildi [2].

Surxondaryo viloyatining oziq-ovqat, agrosanoat va qishloq xo'jalik yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan kollejlari malakali kadrlar bilan ta'minlashda Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti muhim rol o'ynadi. Mazkur oliy o'quv yurti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagi "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida"gi 77-sonli qaroriga muvofiq, kasb-hunar kollejlari uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha bazaviy oliy ta'lim muassasasi etib belgilangan edi. Shunga asosan, 1998-yil 2-9-avgust kunlari Termiz akademik litseyining 5 nafar va Termiz oziq-ovqat sanoati kasb hunar kollejining 19 nafar o'qituvchisi Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutida malaka oshirib qaytdilar [5].

1999-yil 1-dekabr holati bo'yicha Surxondaryo viloyati kollejlari go'sht va sut, baliq va konservalangan mahsulotlar texnologiyasidan 6 nafar mutaxassis ishlab turdi. 2000-2001 o'quv yilida ushbu tarmoq uchun jami 50 nafar mutaxassisga ehtiyoj borligi va ularni Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutiga o'qishga jo'natish masalasi hal qilindi.

Qishloq xo'jalik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv adabiyotlari va darsliklarni tayyorlash yuzasidan Toshkent irrigatsiya va Toshkent Davlat agrar universiteti bilan hamkorlik ishlari olib borildi. Samarqand kooperativ instituti bilan oziq-ovqat sanoati

yo'nalishidagi 7 xildagi 750 nusxada qo'llanma adabiyotlar tayyorlash uchun shartnoma tuzildi. Viloyatdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari o'quvchilarining birinchi fan olimpiadasi o'tkazildi. Bu olimpiadada talaba o'quvchilar 10 fan bo'yicha bellashdilar, g'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi. Viloyatda tashkil etilgan yangi turdagi o'quv muassasalari 1998-2000-yillar davomida 2 597 nomda, 34 000 nusxada, jami 13 131, 392 so'mlik miqdorda yangi nashrdan chiqarilgan siyosiy, ma'naviy mafkuraga oid va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangan [6].

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Denov agrotijorat kollejida 1999-yilda «Iqtisod», «Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi», «Qishloq va o'rmon xo'jaligi» kabi 6 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlandi. Shuningdek, mavjud mutaxassisliklar bo'yicha (0102 – «Buxgalteriya», 2704 – «Vino tayyorlash texnologiyasi», 2705 – «Meva va sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash», 3102 – «Agronomiya», 3120 – «Fermer (dehqonchilik) xo'jaliklarini tashkil etish») o'quv yurtining ta'lim sohasiga muvofiq mutaxassislar tayyorlandi. 1998/1999 o'quv yilida 12 nafar bitiruvchi o'quv yurtini imtiyozli diplom bilan tamomladi [7].

2000-yilda Denov Yurchi qishloq xo'jalik kollejida malakali mutaxassislar tayyorlash borasida Termiz agrotadbirkorlik kolleji o'qituvchisi qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi M. Omonovning "Qorako'lchilik turkumi", "Surxondaryo viloyati qorako'lchilik xo'jaliklarida jun qoplamlari sifati bo'yicha katta yoshdagi nasldor qo'chqorlarni tanlash" qo'llanmasi, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi Sh.Chorshanbiyevning "Ветеринарно-санитарные мероприятия при туберкулёзе", Санк-Петербургр ветерinariya institutining ilmiy to'plamda e'lon qilingan "Экономический эффективность противотуберкулёзных мероприятий" hamda "Организация противоэпизоотических мероприятий в Сурхондарьинской области Узбекистана" ilmiy ish asosida fanlardan chop etilgan qo'llanmalar, Sariosiyo qishloq xo'jaligi kolleji direktori q.x.f.n. X.Xolmurodovning botanika fanidan chop etilgan qo'llanmalari kollejda darslik sifatida o'tildi [8].

Viloyatda tashkil etilgan yangi turdagi o'quv muassasalari 1998-2000 yillar davomida 2597 nomda, 34 000 nusxada, jami 13131, 392 so'mlik miqdorda yangi nashrdan chiqarilgan siyosiy, ma'naviy mafkuraga oid va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangan [4].

Yangi tashkil etilayotgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 1999-yil 31-avgust holati bo'yicha Denovdagi Yurchi qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejida 20 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatib, ulardan 17 tasi oliy ma'lumotli, 3 kishi o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis bo'lgan. Shuningdek, Qumqo'rg'on qishloq xo'jalik kollejining 14 nafar o'qituvchining 13 tasi oliy, 1 nafari o'rta maxsus ma'lumotli, Qumqo'rg'on tumanidagi Sayxon qishloq xo'jaligi kollejida 27 nafar o'qituvchining hammasini oliy ma'lumotli o'qituvchilar tashkil etgan [8].

Kadrlar Milliy dasturini amalga oshirish borasida 1998-2000 yillar mobaynida respublikamizda 307 ta yangi turdagi o'quv muassasalari, jumladan 47 akademik litseylar va 260 ta kasb-hunar kollejlari tashkil etilib, ushbu o'quv muassasalari eng zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari, o'qitishning texnik vositalari, o'quv ko'rgazmali qurollar, trenajyorlar, kompyuter klasslari, yuqori texnologiyali o'quv jihozlari va boshqa zaruriy anjomlar bilan jihozlash yo'lga qo'yildi [2].

2000-yilning 18-20 aprel kunlari 1999-2000 o'quv yilida tashkil etilgan 6 ta jumladan, Termiz iqtisodiyot, Sariosiyo, Denov Hazarbo'g', Denov Yurchi, Qumqo'rg'on Sayxon qishloq

xo'jaligi kasb-hunar kollejlari ta'lim faoliyatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat Test Markazi Tarkibidagi Kadrlar tayyorlash, sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiya boshqarmasi tomonidan o'rganildi.

Viloyat kasb-hunar kollejlari shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan vasiy, homiy tashkilotlar belgilandi. Jumladan, Hazarbog' qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejiga homiy tashkilot Termiz davlat universiteti, vasiy tashkilot Hazarbog' jamoa xo'jaligi, Xayrobod paxta hissadorlik jamiyati, Sayxon qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejiga homiy tashkilot Termiz davlat universiteti, vasiy tashkilot Sayxon jamoa xo'jaligi, Qumqo'rg'on qorako'l, bo'rdoqichilik kompleksi belgilandi [9].

Viloyat kasb-hunar kollejlari amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar salmog'i sezilarli bo'lsa-da, ayrim kasb-hunar kollejlari binolarini o'z vaqtida foydalanishga topshirilishida, o'quv jarayoni hujjatlarida, moddiy texnik bazasini mustahkamlashda, o'qituvchilar malakasini oshirish ishlarida, mutaxassisliklarni ochishda tezlikda hal etilishi lozim bo'lgan qator kamchiliklar ham mavjud edi. Viloyatda faoliyati o'rganilgan kasb-hunar kollejlari maxsus fanlardan dars beruvchi malakali o'qituvchilar yetishmas edi. Bu hol Sherobod akademik litseyda 42 foizni, Qumqo'rg'on Sayxon qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejida 38 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlari Denov tumanidagi Yurchi, Qumqo'rg'on qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejida past darajada ekanligi ma'lum bo'ldi. Kollej o'quvchilarining bilim sifatining me'yordan pastligiga bosh sabab, mutaxassis fanlaridan malakali o'qituvchilarning yo'qligi, o'quv rejalarida ko'rsatilgan fanlardan sifatli namunaviy dasturlarining mavjud emasligi, o'quv-laboratoriya bazasining yaratilmaganligidir.

Viloyatda yangi tashkil etilgan kasb-hunar kollejlari bilan homiy va vasiy tashkilotlari hamda ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilmagan va shartnomalar tuzilmagan. Sherobod agrosanoat kasb-hunar kollejida barcha zaruriy jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishiga qaramay, ularni ishlatadigan mutaxassislarning ozligi bois, ayrim asbob-uskunalar va kompyuterlar ishlatilmay qolgan. Qolaversa, qishloqlardan kollej bilan bog'lovchi avtobus yo'qligi davomatning keskin pasayishiga sabab bo'lgan. Kunlik davomat 34% ni tashkil etgan. 50 o'rinli yotoqxonada bor-yo'g'i 10 nafar o'quvchi joylashgan. Yotoqxona binosi isitilmagan. Shu sabab, kollejdagi ta'lim berish sifati juda past. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar, tahlillar bir qator ta'lim muassasalarida o'quv va mehnat intizomi talab darajasida emasligini ko'rsatdi. O'quv dasturlarini o'zlashtirmayotgan o'quvchilarni aksariyati, darslarga sababsiz qatnashmaganliklari, o'quv yurtlarining ichki tartib qoidalariga va Ustaviga rioya qilmaganliklari tufaylidir. Bunday holat pedagog, muhandis-pedagoglar va guruh rahbarlarining o'quvchilar davomatini nazorat qilish va tahlil etishga sovuqqonlik bilan yondashayotganliklarini, ayrim hollarda esa yoshlarning kelajagiga, ularni Vatanga sodiq, mustaqillik mafkurasi bilan sug'orilgan, barkamol inson bo'lib yetishishlariga befarqlik qilayotganliklaridan hamda o'quvchilar tarbiyasida ota-onalarning mas'uliyati kamayib ketganligidan dalolat beradi.

2009-2010 o'quv yilida umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litsey va kasb — hunar kollejlari qamrab olish past darajada bo'lgan.

2013-yilga kelib, 2001-yilga nisbatan o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalariga kirayotganlar soni Surxondaryo viloyatida 4 — 5 marta oshdi. Jumladan, 2013/14 o'quv yilida Surxondaryo viloyatida 116 ta kasb-hunar kollejda 134,3 ming nafar o'quvchi tahsil oldi. Bu davrga kelib viloyatning Muzrabot, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sho'rchi kabi tumanlarida

qishloq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlariga amaliy yordam ko'rsatildi [2].

Qishloq xo'jaligi, xususan uning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan chorvachilik sohasida faoliyat olib borgan mutaxassislar uchun munosib turmush tarzini shakllantirish borasida Termiz, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sariosiyo tumanlarida olib borilgan ishlar o'z natijalarini berdi. Manfaatdor vazirlik, korxona va idoralar hamkorligida Ishchi guruhi a'zolari tomonidan mazkur tumanlarda band bo'lmagan aholini aniq kasb va ish ko'nikmalari bo'yicha o'qitish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi [10].

Xulosa. Surxondaryo viloyatida chorvachilik sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi tarkibiy o'zgarishlar nafaqat zamonaviy davr talablari, balki tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan tajribaga ham tayangan holda amalga oshirilmoqda. Mintaqada qadimdan mavjud bo'lgan chorvachilik an'analari, xalq xo'jaligi rivojida o'rni hamda turli davrlarda amalga oshirilgan ta'limiy islohotlar bugungi kunda mutaxassislar tayyorlash tizimining asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi chorvachilik sohasida malakali kadrlar yetishtirish hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishga imkon yaratmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ahmedova M.A. O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: erishilgan natijalar va istiqbolli yo'nalishlar // Zamonaviy ta'lim / 2014. № 8.
2. Axunova Sh. O'zbekistonda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish masalalari // Zamonaviy ta'lim / Современного образования. 2014. № 8.
3. Eshmatov M.E. Qishloq yoshlari jismoniy va ma'naviy qiyofasiga ekologik vaziyatning ta'siri. F.f.n. dis. avtoreferati. –Toshkent, 1994.
4. Rahimov B.S. O'zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yillar). Tarix fan.nom.diss. – Toshkent: O'zMU, 2008.
5. Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi. 2017-yil yanvar-dekabr. Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi. 2018-yil yanvar-dekabr.
6. Temirova Ch.H. O'zbekiston qishloqlari rivojlanishining ijtimoiy-madaniy aspektlari: holati va muammolar (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida 1991-2008 yy). Tarix fan. nom. diss. avtoreferati.– Toshkent: O'zMU, 2011.
7. Tursunov S, To'xtayev A. Jarqo'rg'on. –Toshkent: Fan, 2008.
8. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009.
9. Tursunov S.Eshboyev Q. Sho'rchi tarixidan lavhalar. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
10. Yangiboyev B.Ya. O'zbekiston qishloq joylarida iste'mol bozorining sotsial-iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqtisod. fan.nom. disser.. avtoreferati. –Toshkent, 1993.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).